



O'ZBEKISTON UY XO'JALIKLARINING TAHLILI:
SAMUELSONNING PULNING NAFLILIK O'LCHOVI FUNKSIYASI
ASOSIDA

Boltayeva Dilafza Jumaqulovna

*TDIU 2-kurs magistranti, "Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish"
kafedrasi assistenti*

Annotatsiya: Ushbu maqola Pol Samuelsonning pulning naflilik o'lchovi (money metric utility function) funksiyasini O'zbekiston Respublikasi uy xo'jaliklari misolida qo'llash orqali turmush darajasining o'zgarishlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda uy xo'jaliklarining iqtisodiy qarorlari, daromad taqsimoti va narx o'zgarishlariga moslashuvi pulning naflilik o'lchovi yordamida baholanadi. O'zbekistonning 2016–2024-yillardagi statistik ma'lumotlari asosida nominal va real naflilik ko'rsatkichlari tahlil qilinib, inflyatsiyaning farovonlikka ta'siri aniqlandi.

Kalit so'zlar: pulning naflilik o'lchovi funksiyasi, uy xo'jaliklari, turmush darajasi, farovonlik, iqtisodiy siyosat, inflyatsiya, O'zbekiston iqtisodiyoti, Pol Samuelson, real naflilik, nominal iste'mol xarajatlari, real iste'mol xarajatlari, YaIM deflyatori.

Abstract: This article is devoted to the analysis of changes in living standards by applying Paul Samuelson's money metric utility function to the example of households in the Republic of Uzbekistan. The study assesses the economic decisions of households, income distribution and adjustment to price changes using the money metric utility function. Based on the statistical data of Uzbekistan for 2016–2024, nominal and real utility indicators are analyzed, and the impact of inflation on well-being is determined.

Keywords: money metric utility function, households, living standards, well-being, economic policy, inflation, Uzbekistan's economy, Paul Samuelson, real utility, nominal consumer spending, real consumer spending, GDP deflator.



Аннотация: Статья посвящена анализу изменений уровня жизни путем применения денежной метрической функции полезности Пола Самуэльсона на примере домохозяйств Республики Узбекистан. В исследовании оцениваются экономические решения домохозяйств, распределение доходов и адаптация к изменениям цен с использованием показателя полезности денег. На основе статистических данных Узбекистана за 2016–2024 годы был проведен анализ номинальных и реальных темпов инфляции для определения влияния инфляции на благосостояние.

Ключевые слова: функция полезности денег, домохозяйства, уровень жизни, благосостояние, экономическая политика, инфляция, экономика Узбекистана, Пол Самуэльсон, реальная полезность, номинальные потребительские расходы, реальные потребительские расходы, дефлятор ВВП.

KIRISH

Iqtisodiyotda turmush darajasini o‘lchash va tahlil qilish masalasi individ va jamiyat farovonligini baholashning muhim vositasi sifatida har doim markaziy o‘rin tutib kelgan. Ushbu sohada Pol Samuelson tomonidan 1974-yilda taklif etilgan pulning naflilik o‘lchovi funksiyasi (money metric utility function)¹ muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u individ yoki uy xo‘jaligining ma’lum bir naflilik darajasini saqlab qolish uchun zarur bo‘lgan naqd pul miqdorini aniqlash imkonini beradi. Bu yondashuv nafaqat farovonlikni miqdoriy jihatdan baholashda, balki iqtisodiy siyosatning uy xo‘jaliklari hayot sifatiga ta’sirini tahlil qilishda ham keng qo‘llaniladi. Uy xo‘jaliklari iqtisodiy tizimning asosiy birligi sifatida iste’mol, daromad va resurslarni taqsimlash jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, pulning naflilik o‘lchovi funksiyasi va uy xo‘jaligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish zamonaviy iqtisodiy nazariya va amaliyot uchun dolzarb mavzuga aylanmoqda.

Ushbu maqola pulning naflilik o‘lchovi funksiyasini uy xo‘jaligi darajasida qo‘llash orqali turmush darajasining o‘zgarishini baholashga qaratilgan. Xususan,

¹ Samuelson, P. A. (1974). Complementarity: An essay on the 40th anniversary of the Hicks-Allen revolution in demand theory. *Journal of Economic Literature*, 12(4), 1255–1289



ushbu o‘lchov yordamida uy xo‘jaliklarining iqtisodiy qarorlari, daromad taqsimoti va narx o‘zgarishlariga moslashuvi tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi – Samuelsonning yondashuvini zamonaviy ma’lumotlar va modellar asosida sinab ko‘rish hamda uning uy xo‘jaliklari farovonligini o‘lchashdagi samaradorligini aniqlashdir. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot iqtisodiy siyosat ishlab chiqaruvchilar uchun foydali bo‘lgan amaliy xulosalar taqdim etishni ham ko‘zlaydi.

Ushbu maqola pulning naflilik o‘lchovi funksiyasini uy xo‘jaligi darajasida qo‘llash orqali turmush darajasining o‘zgarishini baholashga qaratilgan bo‘lib, Samuelsonning yondashuvi O‘zbekiston misolida sinab ko‘riladi. O‘zbekiston kabi o‘tish davridagi iqtisodiyotga ega mamlakatda uy xo‘jaliklarining iqtisodiy qarorlari, daromad taqsimoti va narx o‘zgarishlariga moslashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Maqolaning maqsadi – ushbu yondashuvni zamonaviy ma’lumotlar va modellar asosida O‘zbekiston uy xo‘jaliklari kontekstida sinab ko‘rish hamda uning farovonlikni o‘lchashdagi samaradorligini aniqlashdir. Bu tadqiqotning amaliy jihatdan muhimligi O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik bazasida ham o‘z aksini topadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.03.2020 yildagi “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5975-son farmoni² mamlakatda kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan bo‘lib, uy xo‘jaliklari turmush darajasini yaxshilashni maqsad qilib, iqtisodiy siyosatning samaradorligini o‘lchashga qaratilgan; aholi daromadlari darajasini oshirish, ish o‘rinlari yaratish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash chora-tadbirlarini o‘z ichiga oladi. Samuelsonning pulning naflilik o‘lchovi funksiyasi ushbu maqsadlarni amalga oshirishda ilmiy asoslangan vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bozor iqtisodiyotida uy xo‘jaliklarining o‘rni va funksiyalari, “uy xo‘jalogining yangi iqtisodiyoti konsepsiysi”, uy xo‘jaliklarida “insonning hatti-xarakati”nazariyalari asoslangan (Shvetsiya, Shvetsariya AQSH); uy xo‘jalgi

² <https://lex.uz/docs/-4776669>



faoliyatini alohida iqtsiodiyot sektori sifatida, ular a'zolarining bandligi, aholi daromadi, iste'moli va jamg'armalarining umumiy hajmining kattaligiga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan (Buyuk Britaniya, Germaniya); uy xo'jaligi faoliyatiga institutlar ta'siri, mulkchilik huquqi, oila institutini boshqarish, shartnomaviy munosabatlar kabi tushunchalarga tayanuvchi nazariy qarashlar asoslangan (AQSH, Fransiya); uy xo'jaliklarining qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi rivojlanishi (shaxsiy yordamchi xo'jaliklar), oila daromadi va xarajatlari, byudjeti, uy xo'jaligi a'zolarining ehtiyojlari omillari samaradorligi asoslangan (Rossiya).

Hozirgi vaqtida xorijda, ayniqsa o'tish iqtisodiyotiga ega davlatlarda uy xo'jaliklari faoliyati va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish bo'yicha chuqur ilmiy-metodologik hamda amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda, xususan: uy xo'jaliklari faoliyatini tartibga solish, qo'llab – quvvatlash, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi va oilaviy tadbirkorlikni hamda o'z-o'zini bandligini ta'minlash, bozor munosabatlarida samarali ishtirok qilish kabi yo'nalishlarda izlanishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola tadqiqot jarayonida uy xo'jaliklarining iqtisodiyotdagি o'rni, ularning farovonlik darajasini o'lchashning nazariy va amaliy jihatlari, xususan, Pol Samuelson tomonidan ishlab chiqilgan pulning naflilik o'lchovi konsepsiysi asosida O'zbekiston uy xo'jaliklari misolida tahlil qilish maqsadida ilmiytadqiqotning tanlanma adabiyotlar tahlili, guruhlashtirish, analiz, sintez, induktsiya, deduktsiya, qiyosiy taqqoslash, ma'lumotlarni yig'ish va iqtisodiy matematika kabilardan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Uy xo'jaligi inson kapitalini asrash va rivojlantirish kabi mas'uliyatli funksiyani bajarib, butun jamiyatning ishchi kuchlarini takror ishlab chiqaradi va jamiyatda yaratilgan barcha tovar mahsulotlarining pirovard natijada iste'molchisi ham hisoblanadi.


Ushbu maqolada biz iste'molga asoslangan farovonlik ko'rsatkichining nazariy bazasini qisqacha bayon qilamiz. Bunda asosiy tushunchalardan biri sifatida



pulning naflilik o'lchovi (Samuelson (1974), uning yordamida turmush darjasini uni saqlab qolish uchun zarur bo'lgan naqd pul miqdori bilan o'lchanadi) funksiyasisiga asoslangan muqobil yondashuvdan foydalanamiz. Ushbu yondashuv o'zining kuchli va zaif tomonlariga ega; unda nominal iste'mol birligi asos sifatida olinadi, ammo hayratlanarli darajada tuzatiladi.

Pulning naflilik o'lchovi uy xo'jaligining naflilik funksiyasini o'ziga xos normallashtirish usuli bo'lib, uning tanlovini, afzalliklarini aniq aks ettiradi. Pulning naflilik o'lchovi odatda moslashuvchan bo'lmaydi; biroq, amaliy farovonlik tahlilida qo'llanilganda, bu maqbul xususiyat hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, u kerakli darajada naflilikni ta'minlaydigan tovarlar va xizmatlar to'plamini iste'mol qilish uchun qancha daromad kerakligini ko'rsatadi. Aynan shuning uchun ham pulning naflilik o'lchovi funksiyasi minimal daromad funksiyasi yoki to'g'ridan-to'g'ri kompensatsiya funksiyasi deb ham ataladi. Pulning naflilik o'lchovi funksiyasi daromadni naflilik darajasining ko'rsatkichi sifatida qo'llash orqali aniq xulosa chiqarish imkonini beradi: "Yuqori daromad yuqori naflilikni anglatadi". Shuningdek, u naflilikni oshirishning yagona yo'li ko'proq pul sarflash ekanligini ham ko'rsatadi

Biz uchun boshlang'ich nuqta-bu iste'molning kanonik muammosi, bu yerda uy xo'jaligi ma'lum bir budgetda va belgilangan narxlarda naflilikni maksimal darajada oshiradigan tarzda individual tovarlarni iste'mol qilishni tanlaydi. Iste'molchilarining tovarlarga bo'lgan afzalliklari befarqlik egri chiziqlari tizimi sifatida qaraladi, ularning har biri teng farovonlikni ta'minlaydigan tovarlarning kombinatsiyasini bog'laydi, yuqorida joylashgan befarqlik egri chiziqlari quyida joylashganlarga nisbatan afzalroqdir (1-rasm).



1-rasm. Befarqlik egri chiziqlarini belgilashning ikkita varianti.

Har bir berilgan befarqlik egri chizig‘i ma’lum bir farovonlik darajasiga yoki turmush darajasiga to‘g‘ri keladi, shuning uchun farovonlikni o‘lchash befarqlik egri chiziqlarini belgilash va keyin egri chiziq bo‘yicha har bir uy xo‘jaligining joylashuvini topishga teng. Befarqlik egri chiziqlarini belgilashning ko‘plab usullari mavjud. Masalan, tovarlarning ma’lum bir asosiy kombinatsiyasini olish va befarqlik egri chiziqlarini kelib chiqishidan ularning bazis bilan kesishish nuqtasigacha bo‘lgan masofa bilan belgilash mumkin. 1-rasmda miqdorning vektori q^0 chizig‘i sifatida ko‘rsatilgan; shunday qilib, ikkita II va JJ befarqlik egri chiziqlari miqdor vektori q^0 chizig‘ini kesib o‘tgan nuqtalar mos ravishda A va B nuqtalar deb belgilanadi. Miqdorlarning asosiy kombinatsiyasi o‘rniga narxlarning asosiy kombinatsiyasini tanlash va berilgan ikkita befarqlik egri chizig‘iga erishish uchun zarur bo‘lgan pul miqdorini hisoblash mumkin; bu Samuelsonning pulning naflilik o‘lchovidir. Xuddi shu grafikda pulning naflilik o‘lchovi befarqlik egri chiziqlariga ikkita urinma chizish orqali aks ettiriladi va ularning qiyaligi asosiy narxlar bilan belgilanadi, shunda egri chiziqlarga erishish xarakatlari mos ravishda q_1 uchun $0C^1$ va $0D^1$ yoki q_1 uchun $0C$ va $0D$ ni tashkil qiladi.



Jarayonni amalda ko‘rish uchun belgilashlar kiritamiz. Biz x orqali yalpi xarajatlarni va har bir vektori p narxda bo‘lgan naflilik darajasi u ga erishish uchun kerak bo‘ladigan minimal xarajatlarni $c(u, p)$ xarajatlar funksiyasi orqali belgilaymiz. Uy xo‘jaligi naflilik darajasini qanchalik maksimallashtirsa, u ga erishish xarajatlarini minimallashtirishi kerak, shuning uchun:

$$c(u, p) = x. \quad (1)$$

Darajadagi h belgisi farovonligi o‘lchanilayotgan uy xo‘jaligini; p^0 asosiy narxlar vektorini bildirsa, uy xo‘jaligi h uchun pulning naflilik o‘lchovi u_m^h quyidagicha aniqlanadi:

$$u_m^h = c(u^h, p^0), \quad (2)$$

bu p^0 narxlarida u^h ga erishishning minimal xarajatlariga mos keladi.

Pulning naflilik o‘lchovini to‘g‘ri hisoblash uchun afzalliklarni, iste’molchi tanlovini bilish kerak. Talab funksiyalaridan iste’molchilarining barcha tanlovlarini bilib olish qiyin, ayniqsa uy xo‘jaliklarining. Shu sababli Sheppard lemmasi³ (yoki Royning o‘ziga xosligi⁴)ga asosan narxlar bo‘yicha xarajatlar funksiyasining hosilalari iste’mol qilinadigan tovarlar miqdorini bergani uchun narxlar vektori p^0 atrofida uy xo‘jaligi haqiqatda duch keladigan p^h narxlardagi $c(u^h, p^0)$ ning kengaytmasini hosil qilamiz. Bunda miqdoriy vektorni q deb belgilash orqali xarajatlar funksiyasini taqriban quyidagicha hisoblash mumkin:

$$c(u^h, p^0) \approx c(u^h, p^h) + (p^0 - p^h) * q^h, \quad (3)$$

bu yerda q^h **kompensatsiyalangan talab funksiyasi**, ya’ni xarajat funksiyasining narx bo‘yicha hosilasi. Bu shuni anglatadiki, xarajat funksiyasi ozgina o‘zgorganida (masalan, narx p o‘zgarsa), talab **chiziqli taxmin** asosida yuqoridagicha o‘zgaradi. $(p^0 - p^h) * q^h$ ifodasi esa **xarajatning qanday o‘zgarishini** ko‘rsatadi. p^h qiymati bo‘yicha u^h ga erishishning minimal xarajatlari boshlang‘ich narx $p^h = 0$ bo‘lganda amalga oshadi. Agar biz xarajatni nisbiy

³ Shephard, R. W. (1953). *Theory of Cost and Production Functions*. Princeton University Press.

⁴ Roy, R. (1947). La distribution du revenu entre les divers biens. *Econometrica*, 15(3), 205–225.



o‘zgarishi orqali baholasak, boshlang‘ich xarajat nuqtasi noldan boshlanadi. Boshqacha qilib aytganda, $c(u^h, p^h) = 0$. Natijada:

$$u_m^h = c(u^h, p^0) = p^0 * q^h, \quad (4)$$

bu uy xo‘jaliklari tomonidan iste’mol qilinadigan mahsulotlar vektori, ular bazis narxlari asosida baholanadi. Bu tushuncha MHT bilan uzviy bog‘liqdir, chunki real YaIM tarkibida real iste’mol xarajatlari mavjud bo‘lib, ular barcha iste’molchilarining bazis narxlari asosida baholangan umumiy iste’mol summasi bilan ifodalanadi. Boshqacha aytganda, bu (4) formuladagi o‘ng taraf yig‘indisi bo‘lib, barcha iqtisodiy subyektlarning real iste’mol xarajatlarini o‘z ichiga oladi.

Ushbu tenglama hali ham amaliy maqsadlar uchun juda qulay bo‘lmagan shaklga ega, chunki har bir uy xo‘jaligi uchun miqdorlarning to‘liq kombinatsiyasini kuzatish kamdan-kam uchraydi; bizning ixtiyorimizda asosiy narxlarning to‘liq kombinatsiyasi bo‘lmasligi mumkin. p^h va p^0 narx vektorlarini taqqoslaydigan Paashe narx indeksi quyidagicha aniqlanadi:

$$P_p^h = \frac{p^h * q^h}{p^0 * q^h} \quad (5)$$

va shuning uchun (4) ga asoslanib, bizda:

$$u_m^h \approx \frac{p^h * q^h}{P_p^h} = \frac{x^h}{P_p^h} \quad (6)$$

shunday qilib, pulning naflilik o‘lchovini uy xo‘jaliklarining barcha xarajatlari yig‘indisini Paashe narxlar indeksiga bo‘lish yo‘li bilan hisoblash mumkin.

Har bir uy xo‘jaligi turli xil mahsulotlarni turli miqdorda xarid qiladi. Shuning uchun, og‘irlik sifatida aynan ularning xarid miqdorlarini qo‘llash real xarid quvvatini aniq aks ettiradi. YaIM deflyatori nominal YaIM va real YaIM o‘rtasidagi narx o‘zgarishlarini o‘lchaydi va joriy davrning tovar va xizmatlar savatchasini (ya’ni Q_t) hisobga oladi. Bu Paasche indeksining asosiy xususiyatiga mos keladi, chunki Paasche indeksi ham joriy davr miqdorlariga (Q_t) asoslanadi.

Nominal iste’molni to‘g‘ri deflyatsiya qilish – ya’ni, joriy pul qiymatini bazaviy narxlarga nisbatan normallashtirish – uy xo‘jaligining haqiqiy, real iste’mol darajasini ko‘rsatadi. Bu esa iqtisodiy tahlilda va solishtirishlarda muhim



ahamiyatga ega. YaIM deflyatori uy xo‘jaligining joriy iste’mol savatini hisobga oladi. Shunday qilib, narxlar o‘zgarishini (masalan, oziq-ovqat yoki kiyim-kechak narxlarining o‘zgarishi) hisobga olgan holda, nominal xarajatlarni deflyatsiya qilish mumkin. Bundan kelib chiqadiki, Paashe narxlar indeksi o‘rniga YaIM deflyatoridan foydalanish mumkin:

$$u_m^h \approx \frac{p^h * q^h}{\text{YaIM deflyatori}} = \frac{x^h}{\text{YaIM deflyatori}} \quad (7)$$

Shunga ko‘ra, quyida O‘zbekiston Respublikasi uy xo‘jaliklari uchun pulning naflilik o‘lchovi (Samuelson (1974)) natijalari va ularning tahlilini ko‘rib chiqamiz. Ushbu qiymat o‘lchov sifatida koeffitsient sifatida ham, pul birligida yoki nisbiy qiymatda ham ifodalanishi mumkin. Shu sababli biz pul birligi sifatida hisoblab ko‘ramiz.

1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi uy xo‘jaliklari uchun pulning naflilik o‘lchovi

Yil	x^h (mlrd. so‘m)	YaIM deflyatori (o‘tgan yilga nisbatan)	u_m^h (mlrd. so‘m)
2016	167245,5	109,43	152840,9
2017	247326,1	113,05	218769,6
2018	314613,1	129,6	242757,8
2019	383788,2	118,13	324841,1
2020	426097,1	111,63	381622,8
2021	536482,0	112,53	476695,1
2022	677753,6	115,85	585026,8
2023	816493,0	112,68	724540,6
2024	979429,3	113,3	864541,4

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi jadval natijalaridan ko‘rishimiz mumkinki, 2016–2024-yillar davomida nominal xarajatlar 167,245.5 mlrd. so‘mdan 979,429.3 mlrd. so‘mgacha



5.86 barobar oshdi (yillik o‘rtacha o‘sish ~24.7%). Eng yuqori o‘sish 2017-yilda (47.9%) valyuta islohoti tufayli, eng past o‘sish 2020-yilda (11.0%) pandemiya ta’sirida kuzatildi. Inflyatsiya 2018-yilda cho‘qqiga chiqdi (29.6%), keyin 2019-yildan boshlab pasaya boshladi va 2020–2024-yillarda o‘rtacha 12–15% atrofida barqarorlashdi. O‘rtacha yillik inflyatsiya (2016–2024) taxminan 14.8% ni tashkil qildi. Pulning naflilik o‘lchovi, ya’ni real naflilik 152,840.9 mlrd. so‘mdan 864,541.4 mlrd. so‘mgacha 5.66 barobar oshdi (yillik o‘rtacha o‘sish ~24.1%). Eng katta o‘sish 2019-yilda (33.8%), eng kichik o‘sish 2018-yilda (11.0%) qayd etildi. Real naflilikning o‘sishi ko‘p hollarda nominal xarajatlardan past bo‘ldi, bu inflyatsiyaning doimiy ta’sirini ko‘rsatadi. Yuqori inflyatsiya yillarida (2017, 2018) real naflilik o‘sishi nominal xarajatlarga nisbatan sezilarli darajada past edi (masalan, 2018: 27.2% nominal vs 11.0% real). Past inflyatsiya yillarida (2019, 2020, 2023) real naflilik o‘sishi nominal xarajatlarga yaqinlashdi yoki undan oshib ketdi (masalan, 2019: 22.0% nominal va 33.8% real).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada Pol Samuelsonning pulning naflilik o‘lchovi konsepsiysi uy xo‘jaliklari darajasida qo‘llanilishi orqali O‘zbekiston Respublikasida turmush darajasining o‘zgarishlari tahlil qilindi. Ushbu yondashuv nafaqat farovonlikni miqdoriy jihatdan o‘lchashda, balki iqtisodiy siyosatning uy xo‘jaliklari hayot sifatiga ta’sirini aniqlashda ham muhim vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot davomida aniqlangan tendensiyalar, masalan, inflyatsiyaning real naflilikka ta’siri va iqtisodiy islohotlarning uy xo‘jaliklari daromadiga ta’siri, O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘sish traektoriyasini tushunishda yordam berdi.

O‘zbekiston uy xo‘jaliklarining pulning naflilik o‘lchovi 2016–2024-yillarda umumiyligi o‘sish tendensiyasini ko‘rsatdi, ammo inflyatsiya bu o‘sishni doimiy ravishda cheklab keldi. Bu ko‘rsatkichlar inflyatsiyaning uy xo‘jaliklari farovonligiga doimiy ta’sirini va real naflilik o‘sishining nominal xarajatlarga nisbatan sekinroq kechishini tasdiqlaydi. Ayniqsa, yuqori inflyatsiya davrlari (2017–2018-yillar) real naflilikning o‘sishini sezilarli darajada cheklagan bo‘lsa, inflyatsion shoklardan so‘ng, 2019-yildan boshlab iqtisodiy barqarorlashish va real



xarid qobiliyatining o'sishi kuzatildi) real farovonlikning nominal ko'rsatkichlarga yaqinlashdi. 2024-yilga kelib, nominal xarajatlar deyarli 1 trillion so'mga yetdi, real naflilik esa 864,541.4 mld. so'mni tashkil qildi, bu uy xo'jaliklari farovonligining sezilarli yaxshilanganini ko'rsatadi. Biroq, inflyatsiya (o'rtacha 14.8%) daromad va xarajatlardagi o'sishdan past bo'lsa-da, real farovonlikning to'liq potensialini ro'yobga chiqarishga xalaqit berdi.

Tadqiqot inflyatsiyaning real naflilik o'sishiga salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Shu sababli, narxlar barqarorligini ta'minlash va inflyatsiyani pasaytirishga qaratilgan makroiqtisodiy choralar (masalan, pul-kredit siyosatini kuchaytirish) ustuvor yo'nalish sifatida qabul qilinishi lozim.

Pulning naflilik o'lchovini yanada aniq hisoblash uchun uy xo'jaliklari xarajatlari, iste'mol savatlari va narxlar bo'yicha statistik ma'lumotlar bazasini takomillashtirish zarur. Bu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi tomonidan uy xo'jaliklari budjeti bo'yicha kengroq va batafsil so'rovlар o'tkazilishi tavsiya etiladi.

Tadqiqot natijalari daromad taqsimotidagi nomutanosiblik real naflilik o'sishiga ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatdi. Shu sababli, ijtimoiy himoyaga muhtoj uy xo'jaliklari uchun targetlangan subsidiya dasturlari yanada chuqurroq tahlil qilinishi darkor.

Pulning naflilik o'lchovi kabi ilmiy asoslangan yondashuvlardan foydalanish mamlakat iqtisodiyotidagi uzoq muddatli o'sish va aholining turmush darajasini yaxshilash uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Samuelson, P. A. (1974). Complementarity: An essay on the 40th anniversary of the Hicks-Allen revolution in demand theory. *Journal of Economic Literature*, 12(4), 1255–1289
2. <https://lex.uz/docs/-4776669>
3. Shephard, R. W. (1953). Theory of Cost and Production Functions. Princeton University Press.



4. Roy, R. (1947). La distribution du revenu entre les divers biens. *Econometrica*, 15(3), 205–225.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi